



KORXONA FOYDASINI SHAKLLANTIRISH VA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Komilova Sevara

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-9465-1863

sevarakamilova25@gmail.com

Annotatsiya. Korxonada foydasining shakllanishi va uni buxgalteriya hisobida aks ettirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada foydaning shakllanishi, daromad va xarajatlarni tan olish, baholash hamda ularni hisobot davrlariga to'g'ri taalluqli qilish jarayonlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, foydani manipulyatsiya qilish bilan bog'liq risklar va ularni kamaytirishda ichki nazorat tizimining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: foyda, daromad, xarajatlar, ichki nazorat, moliyaviy natija

РОЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПРИБЫЛИ ПРЕДПРИЯТИЯ И ЕЁ ОТРАЖЕНИЯ В БУХГАЛТЕРСКОМ УЧЁТЕ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Комилова Севара

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Формирование прибыли предприятия и её отражение в бухгалтерском учёте имеют важное значение для обеспечения достоверности финансовой отчётности и принятия управленческих решений. В статье рассматриваются вопросы формирования прибыли, признания и оценки доходов и расходов, а также совершенствования их правильного отнесения к отчётным периодам. Также обоснована значимость системы внутреннего контроля в снижении рисков, связанных с манипулированием прибылью.

Ключевые слова: прибыль, доходы, расходы, внутренний контроль, финансовые результаты.

THE ROLE OF ENTERPRISE PROFIT FORMATION AND ITS REFLECTION IN ACCOUNTING IN ENSURING ECONOMIC SECURITY

Komilova Sevara

Tashkent State University of Economics

Abstract. The formation of enterprise profit and its recognition in accounting are essential for ensuring the reliability of financial reporting and supporting managerial decision-making. This article examines issues related to profit formation, the recognition and measurement of income and expenses, and the improvement of their proper allocation to reporting periods. The study also substantiates the importance of internal control systems in reducing the risks associated with profit manipulation.

Keywords: profit, income, expenses, internal control, financial results.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining natijadorligi, avvalo, uning foyda ko'rsatkichlarida namoyon bo'ladi. Foydaning to'g'ri shakllanishi nafaqat korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, balki moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va shaffofligini ham belgilaydi. Moliyaviy natijalarning haqqoniy aks ettirilishi esa iqtisodiy munosabatlarda ishonch muhitini yaratib, nazorat tizimining samarali ishlashiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi tizimi milliy va xalqaro talablar asosida rivojlanib bormoqda. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlari, jumladan BHMS №2 "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar" va BHMS №3 "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot", daromadlar va xarajatlarni tan olish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibini belgilaydi. Ushbu me'yoriy hujjatlar daromadlarni tan olish mezonlari, xarajatlarni ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlari sifatida tasniflash tartibi hamda moliyaviy natijalarni hisobotda aks ettirish qoidalarini belgilaydi.

Korxonalar foydasi asosan mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan daromadlar va ularni ishlab chiqarish hamda sotish bilan bog'liq xarajatlarni o'rtasidagi farq sifatida shakllanadi. Daromadlarni muddatidan oldin tan olish yoki xarajatlarni noto'g'ri davrga kiritish moliyaviy natijalarning buzilishiga olib keladi, bu esa korxonalar faoliyatini baholashda xatolarga hamda moliyaviy nazorat samaradorligining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli foydaning shakllanish mexanizmini to'g'ri tashkil etish va uni buxgalteriya hisobida ishonchli aks ettirish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda buxgalteriya jarayonlarining avtomatlashtirilishi, elektron hujjat aylanishining kengayishi hamda nazorat tizimlarining raqamli shaklga o'tishi foyda hisobini yuritishga yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bunday sharoitda ichki nazorat tizimining samarali tashkil etilishi daromad va xarajatlarning hujjatlar asosida tan olinishini, ularning tegishli hisobot davriga to'g'ri kiritilishini hamda moliyaviy natijalarning izchil shakllanishini ta'minlaydi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi korxonalar foydasini shakllantirish va uni buxgalteriya hisobida aks ettirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilish hamda ushbu jarayonning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rnini asoslab berishdan iborat. Tadqiqot doirasida foydaning iqtisodiy mohiyati, uning shakllanish bosqichlari hamda BHMS talablariga muvofiq hisobga olinishi masalalari yoritiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy adabiyotlarda foyda faqat natijaviy ko'rsatkich sifatida emas, balki boshqaruv qarorlarini shakllantiruvchi axborot manbai sifatida ham talqin qilinadi. Mahalliy iqtisodchi olimlar, jumladan, buxgalteriya hisobi bo'yicha o'quv qo'llanmalarda (Inoyatov A.X. va boshqalar) foyda tushunchasi moliyaviy natijalarning asosiy ko'rsatkichi sifatida izohlanadi hamda daromad va xarajatlarning o'zaro bog'liqligi asosida shakllanishi ko'rsatib o'tiladi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarida ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun hamda BHMS №2 "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar" va BHMS №3 "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" standartlarida daromad va xarajatlarni tan olish mezonlari hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi belgilangan bo'lib, bu foyda ko'rsatkichlarining ishonchliligini ta'minlaydi. Ushbu yondashuvni to'ldiruvchi xalqaro standartlarda esa masala yanada chuqurroq yoritilib, IFRS 15 "Revenue from Contracts with Customers" daromadlarni muddatidan oldin tan olish xavfini kamaytirishga xizmat qilsa, IAS 1 "Presentation of Financial Statements" esa moliyaviy natijalarni haqqoniy va taqqoslanadigan tarzda taqdim etishni ta'minlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda foydaning shakllanishi bilan bog'liq asosiy xavflar sifatida daromadlarni muddatidan oldin tan olish va xarajatlarni noto'g'ri davrga kiritish ko'rsatilgan bo'lib, bu xatarlar moliyaviy hisobotlarni manipulyatsiya qilishning asosiy manbai sifatida

baholangan va ularni kamaytirish vositasi sifatida ichki nazorat tizimini kuchaytirish ta'kidlangan. Samarali nazorat mexanizmlari yordamida foydaning shakllanish jarayonida hujjatlashtirish, tasdiqlash va monitoring bosqichlarini mustahkamlash orqali axborot ishonchligini ta'minlash mumkin. Shu maqsadda, so'nggi yillarda olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarda foydaning shakllanish jarayoniga raqamli texnologiyalarning ta'siri o'rganilmoqda. Xususan, elektron buxgalteriya tizimlari va ERP dasturlarining joriy etilishi moliyaviy ma'lumotlarning aniqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanmoqda. Shu bilan birga, tadqiqotchilar raqamlashtirish jarayonida ham ichki nazorat tizimi yetarli darajada tashkil etilmasa, foydani manipulyatsiya qilish xavfi saqlanib qolishini qayd etadilar.

Yuqoridagi yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, korxonada foydasining shakllanishi va uni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari milliy va xalqaro darajada chuqur o'rganilgan bo'lib, asosiy e'tibor daromad va xarajatlarni to'g'ri tan olish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu jihatdan mazkur tadqiqot ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda korxonada foydasini shakllantirish va uni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalarini o'rganishda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosi sifatida buxgalteriya hisobi bo'yicha darsliklar va ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida keltirilgan yondashuvlar qabul qilindi.

Me'yoriy-huquqiy asos sifatida O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlari, jumladan 2-sonli BHMS "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar" va 3-sonli BHMS "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot" talablari o'rganildi. Xalqaro yondashuvda, xususan 15-sonli MHXS "Foyda solig'i" standartiga muvofiq, daromadlar iqtisodiy foyda ustidan nazorat xaridorga o'tganda tan olinadi. Ushbu yondashuv daromadlarni muddatidan oldin tan olish orqali foydani sun'iy oshirish xavfini kamaytiradi hamda 2-son BHMS talablariga yaqin hisoblanadi. Shu asosda daromadlar va xarajatlarni tan olish hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tahlil qilindi.

Shuningdek, daromad va xarajatlarni tan olish bo'yicha milliy amaliyot xalqaro yondashuvlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, foydaning shakllanish mexanizmi va uni moliyaviy hisobotda aks ettirishning asosiy jihatlari aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ilmiy adabiyotlarda va amaldagi me'yoriy hujjatlarda korxonada foydasi moliyaviy natijaning asosiy ko'rsatkichi sifatida talqin qilinadi hamda uning shakllanishi daromadlar va xarajatlarning to'g'ri tan olinishi, baholanishi va tegishli hisobot davriga mansubligiga bevosita bog'liq deb izohlanadi (Inoyatov va boshq., 2011). Iqtisodiy xavfsizlik nuqtayi nazaridan korxonada foydaning haqqoniy shakllanishi moliyaviy shaffoflik va nazoratning asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, moliyaviy natijalarning ishonchli aks ettirilishi 1-sonli BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" standarti talablarida ham alohida ta'kidlanadi. Mazkur standartga ko'ra, foyda ko'rsatkichlari to'liq, haqqoniy va taqqoslanadigan shaklda taqdim etilishi lozim. Natijada moliyaviy natijalar bo'yicha qaror qabul qilish sifati oshadi, moliyaviy ko'rsatkichlarning sun'iy buzilishi ehtimoli kamayadi hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun zarur bo'lgan axborot shaffofligi ta'minlanadi. Bu esa investorlar ishonchini mustahkamlaydi va investitsiya jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Xalqaro yondashuvda, xususan ACCA materiallarida, foydaning shakllanishi faqat arifmetik farq sifatida emas, balki daromadlarni tan olish va ularni tegishli davrga taalluqli qilish bilan bog'liq jarayon sifatida ko'riladi (Kaplan, 2024). Daromadlarni muddatidan oldin

tan olish yoki xarajatlarni keyingi davrga ko'chirish foydani sun'iy oshirishi mumkinligi ta'kidlanadi (Kaplan, 2024). Amaliyotda bunday holatlar odatda ikki yo'l bilan yuz beradi. Birinchidan, hali topshirilmagan tovar yoki hali bajarilmagan xizmat bo'yicha daromadni oldindan tan olish; Ikkinchidan, davr oxiridagi ayrim xarajatlarni keyingi hisobot davriga o'tkazish yoki ularni noto'g'ri tasniflash. Natijada foyda ko'rsatkichlari qisqa muddatda optimallasadi, hisobot davrlari bo'yicha taqqoslash va nazorat sifati pasayadi.

BHMSga muvofiq, daromad mahsulot (ish, xizmat) xaridorga topshirilganda va iqtisodiy foyda olinishi ehtimoli mavjud bo'lganda tan olinadi. Xarajatlar esa ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlari tarkibida hisobga olinadi (O'zbekiston Respublikasi, 2021).

Amaliy jihatdan foydani shakllanishi ketma-ket bosqichlar asosida amalga oshiriladi. Dastlab realizatsiyadan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulot tannarxi ayirilishi natijasida yalpi foyda aniqlanadi. Yalpi foyda korxonaning ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini tavsiflovchi muhim moliyaviy ko'rsatkich bo'lib, mahsulot tannarxini boshqarish darajasi va narx siyosatini baholash imkonini beradi (Inoyatov va boshq., 2011).

Buxgalteriya hisobida yalpi foyda daromadlar va sotilgan mahsulot tannarxi schyotlari yopilib, ularning farqi moliyaviy natija schyotiga o'tkazilganda shakllanadi. Bu jarayon daromadlarni tan olish va tannarxni to'g'ri hisoblash foydani miqdoriga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Keyingi bosqichda yalpi foydadan sotish, ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar chegiriladi hamda asosiy faoliyat foydasi shakllanadi. Ushbu ko'rsatkich ishlab chiqarish va boshqaruv faoliyati samaradorligining umumlashtirilgan ifodasi bo'lib, xarajatlarni nazorat qilish darajasini aks ettiradi.

$$\text{Asosiy faoliyat foydasi} = \text{Yalpi foyda} - \text{Davri xarajatlari}$$

Soliqlar va majburiy ajratmalar chegirilgandan so'ng hosil bo'ladigan natija sof foyda sifatida e'tirof etiladi.

Xalqaro materiallarida foydani haqqoniy shakllanishi ichki nazorat tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatiladi. Ichki nazorat mexanizmlarining sustligi daromad va xarajatlarning noto'g'ri tan olinishi, natijada foydani buzilishiga olib keladi (Kaplan, 2024). Shu bois milliy me'yorlar (BHMS) va xalqaro yondashuvlar (ACCA) uyg'un holda qo'llanilgandagina foydani haqqoniy shakllanishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchligi ta'minlanadi.

Korxonada foydani shakllanishi buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirilish xavfi yuqori bo'lgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi, chunki moliyaviy natija daromad va xarajatlarni tan olish va ularni hisobot davrlariga taalluqli qilishga bevosita bog'liqdir.

ACCA tomonidan tayyorlangan Audit o'quv materiallarida foyda bilan bog'liq asosiy xatarlar sifatida daromadlarni muddatidan oldin tan olish va xarajatlarni noto'g'ri davrga kiritish alohida ko'rsatib o'tiladi. Mazkur holatlar moliyaviy natijalarni ataylab yoki ehtiyotsizlik sababli buzilishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli foydani haqqoniy shakllanishini ta'minlash uchun daromadlarni tan olishda (BHMS №2 "Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar") da belgilangan talablar asosiy mezon sifatida qabul qilinishi lozim. Ushbu standartga muvofiq, daromad mahsulot (ish, xizmat) xaridorga real topshirilganda va iqtisodiy foyda olinishi ehtimoli mavjud bo'lgandagina tan olinadi. Bu talab foydani sun'iy oshirish xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xarajatlarni hisobga olish jarayonida Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom amaliy asos vazifasini bajaradi. Ushbu Nizomga muvofiq, korxonada xarajatlari ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlari sifatida aniq guruhlar ajratiladi hamda faqat tegishli hisobot davrida hisobga olinadi. Amaliyotda bu xarajatlarning birlamchi hujjatlar asosida rasmiylashtirilishi, ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra to'g'ri tasniflanishi va davr oxirida cut-off tamoyiliga muvofiq yopilishini ta'minlash orqali amalga

oshiriladi. Mazkur yondashuv foydani iqtisodiy mazmunini saqlab qolishga hamda moliyaviy natijalarning sun'iy buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Xalqaro yondashuvda, xususan Kaplan tomonidan tayyorlangan ACCA Audit o'quv materiallarida, foydani shakllanishi bilan bog'liq asosiy risklar daromadlarni muddatidan oldin tan olish va xarajatlarni noto'g'ri davrga kiritish bilan izohlanadi. Ushbu risklarni kamaytirishning samarali vositasi sifatida ichki nazorat tizimini kuchaytirish tavsiya etiladi. Amaliy jihatdan ichki nazorat daromad va xarajatlarning faqat hujjatlar asosida tan olinishi, ularning to'g'ri schyotlarda aks ettirilishi hamda hisobot davrida izchil yopilishini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, vazifalarni ajratish, davr oxiri tekshiruvlari va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha monitoring mexanizmlarining joriy etilishi foydani manipulyatsiya qilish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Zamonaviy sharoitda buxgalteriya jarayonlarining raqamlashtirilishi daromad va xarajatlarni avtomatik qayd etish, elektron hujjat aylanishini yuritish hamda moliyaviy ma'lumotlarning izchilligini ta'minlash imkonini beradi. Masalan, 1C buxgalteriya dasturi yoki boshqa ERP tizimlari orqali operatsiyalar real vaqt rejimida ro'yxatga olinadi va audit o'tkaziladi. Bu foyda ko'rsatkichlarining shakllanishini kuzatish va nazorat qilishni osonlashtiradi.

Biroq raqamli tizimlar o'z-o'zidan manipulyatsiya xavfini to'liq bartaraf etmaydi. Agar kirish huquqlari cheklanmasa, vazifalar ajratilmasa yoki ichki nazorat mexanizmlari yetarli darajada ishlamas, ma'lumotlarni o'zgartirish ehtimoli saqlanib qoladi. Shu sababli raqamli texnologiyalar ichki nazorat tizimi bilan uyg'un qo'llanilgandagina foyda ko'rsatkichlarining haqqoniy shakllanishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi ta'minlanadi.

Umuman olganda, xarajatlarni hisobga olishda milliy standartlar, foydani shakllanishini nazorat qilishda xalqaro yondashuvlar hamda raqamli nazorat vositalarining uyg'un qo'llanilishi korxonada foydasining ishonchli shakllanishini ta'minlab, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Korxonada foydasining shakllanishi buxgalteriya hisobida ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u daromad va xarajatlarni tan olish, baholash hamda ularni hisobot davrlariga to'g'ri taalluqli qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Foydani yalpi foyda, asosiy faoliyat foydasi, soliq to'lashdan oldingi foyda va sof foyda bosqichlari orqali izchil shakllanishi moliyaviy natijaning iqtisodiy mazmunini to'liq aks ettirish imkonini beradi. O'tkazilgan tahlil foydani shakllanishi BHMS talablariga muvofiq amalga oshirilganini va milliy me'yorlar daromad hamda xarajatlarning to'g'ri hisobga olinishi orqali foydani haqqoniylikni ta'minlashga qaratilganini ko'rsatdi.

Xalqaro (ACCA) yondashuv bilan taqqoslash foydani shakllanishi daromadlarni muddatidan oldin tan olish va xarajatlarni noto'g'ri davrga kiritish kabi risklarga moyil ekanini ochib berdi. Ushbu risklarni kamaytirishda ichki nazorat tizimini kuchaytirish, daromad va xarajatlarni hujjatlar asosida tan olish hamda davr oxiri nazorat mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Amaliy misol natijalari korxonaning asosiy faoliyatidan foyda olayotganini, biroq davr va moliyaviy xarajatlar foyda miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatdi.

Shuningdek, buxgalteriya hisobida raqamli texnologiyalardan foydalanish moliyaviy operatsiyalarni tezkor qayd etish va nazorat qilish imkonini kengaytiradi. Shu bilan birga, bu tizimlar samarali ichki nazorat mexanizmlari bilan qo'llab-quvvatlangandagina foyda ko'rsatkichlarining haqqoniy aks ettirilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi ta'minlanadi.

Foydani haqqoniy shakllanishini ta'minlashda BHMS talablariga qat'iy rioya etish va ACCA tomonidan tavsiya etilgan ichki nazorat yondashuvlarini uyg'un holda qo'llash

korxonaning moliyaviy barqarorligini oshirish, foyda ko'rsatkichlarini ta'minlabgina qolmay, korxonaning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/References:

ACCA (n.d.) Audit va Assurance (AA) fan dasturi va texnik maqolalar. Available at: <https://www.accaglobal.com>

Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) №2 (n.d.) Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar.

Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) №3 (n.d.) Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot.

IAS 1 (n.d.) Presentation of Financial Statements.

IFRS 15 (n.d.) Revenue from Contracts with Customers.

Inoyatov, A.X. et al. (2011) Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. Toshkent.

Kaplan Publishing (2024) Audit and Assurance (AA): Study text 2024–2025. Kaplan Publishing.

Moliyaviy natijalarni shakllantirish va tahlil qilish masalalari (2023) Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (1999) Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida nizom: 54-son qaror, 5 fevral.